

**1930-1940 YILLARDA O'ZBEKISTONDA OILA-NIKOH
QONUNCHILIGI TARIXI**

Xamrayeva Madina Xaitbayevna,

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti Tarix yo'nalishi 2 kurs magistranti

Email: madina.xamrayeva1984@icloud.com

Tel: +998935085490

Annotation: Ushbu maqolada 1930-1940-yillarda O'zbekistonda oilanikoh qonunchiligining shakllanishi va rivojlanishi hamda sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan huquqiy islohotlar, gender tengligini ta'minlashga qaratilgan choralar tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada nikoh va oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar, ularning mahalliy aholi hayotiga ta'siri hamda rasmiy va norasmiy nikoh amaliyotlari, bolalar huquqlarini himoya qilish borasidagi chora-tadbirlar batafsil tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ittifoq, respublika, tug'ruqxona, bolalar uylari, aliment, qonun, oila, nikoh, komitet, rubl, Konstitutsiya, nafaqa, medal, farmon, qaror, sovet.

Аннотация: В данной статье анализируется формирование и развитие брачно-семейного законодательства в Узбекистане в 1930-1950-е годы, а также правовые реформы, проводимые советской властью и направленные на обеспечение гендерного равенства. Также подробно рассматриваются законы, регулирующие брачные и семейные отношения, их влияние на жизнь местного населения, официальные и неофициальные практики заключения брака, а также меры по защите прав детей..

Ключевые слова: союз, республика, роддом, детские дома, алименты, закон, семья, брак, комитет, рубль, Конституция, пособие, медаль, указ, решение, совет.

Abstract: This article analyzes the formation and development of marriage

and family legislation in Uzbekistan during the 1930s-1950s, as well as the legal reforms implemented by the Soviet government to ensure gender equality. It also examines in detail the laws regulating marriage and family relations, their impact on local society, official and unofficial marriage practices, and measures to protect children's rights.

Keywords: union, republic, maternity hospital, orphanages, alimony, law, family, marriage, committee, ruble, Constitution, allowance, medal, decree, decision, soviet.

Kirish. 1930-1940-yillar O'zbekistonda oila-nikoh qonunchiligining shakllanishi va rivojlanishida muhim davr bo'ldi. Sovet hokimiyati ushbu yillarda oilaviy munosabatlarni davlat nazorati ostiga olib, gender tengligini ta'minlash va patriarchal an'analarni yo'q qilishga qaratilgan qator huquqiy islohotlarni amalga oshirdi. Shuningdek, Sovet hukumati oilani mustahkamlash maqsadida ko'plab ijtimoiy dasturlarni amalga oshirdi. Xususan, onalik va bolalikni himoya qilishga oid qonunlar qabul qilinib, ayollarga homiladorlik va tug'ruq ta'tili, bolalar bog'chalari va bolalar uylari tizimi kengaytirildi. Mazkur davrda O'zbekistonda gender tengligi tamoyillarini ilgari surish maqsadida ayollarni jamiyat hayotiga faol jalb qilish, ularning mehnat bozorida ishtirokini oshirishga qaratilgan siyosat olib borildi.

Asosiy qism. 1936-yilda oilaviy qonunchilikning rivojlanishida navbatdagi muhim qadam qo'yildi. 27-iyun kuni Butunittofq Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (BMJQ) va Xalq Komissarlari Kengashi (XKK) tomonidan "Abortlarni taqiqlash, tug'ruq qilgan ayollarga moddiy yordamni oshirish, ko'p bolali oilalarga davlat yordamini belgilash, tug'ruqxonalar, bolalar uylari va bolalar bog'chalari tarmog'ini kengaytirish, aliment to'lashdan bo'yin tovlash uchun jazo choralarini kuchaytirish va ajralishlar to'g'risidagi qonunchilikka ayrim o'zgartirishlar kiritish" haqidagi qaror qabul qilindi [1].

Bu qaror davlatning shaxsiy oilaviy munosabatlarga ortiqcha aralashuvi

qanday salbiy oqibatlarga olib kelishini aniq namoyish etdi. Orqada qolgan iqtisodiy rivojlanish sharoitida, aholining oilani rejalashtirish bo'yicha elementar tushunchalarga ham ega bo'lmasligan mamlakatda abortning taqylanishi noqonuniy abortlarning keskin ko'payishiga olib keldi. Ko'pincha bunday holatlar og'ir oqibatlar, jumladan, ayollar orasida o'lim holatlarining oshishi bilan tugagan. Vaziyat yanada murakkablashdi, chunki nafaqat abortni amalga oshirgan shaxslar, balki homiladorligini sun'iy ravishda to'xtatgan ayollar ham jinoiy javobgarlikka tortildi. Natijada, ko'plab ayollar qo'rquv sababli hatto sog'ligi yomonlashgan taqdirda ham tibbiy yordamga murojaat qilishdan voz kechgan. Bu esa o'z navbatida ko'plab fojiali o'lim holatlariga sabab bo'ldi [2].

O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komitetining 1938-yil 14- iyul [3] qaroriga binoan respublika Nikoh-oila kodeksi bilan belgilangan nikoh yoshiga o'zgartirish kiritilib, u erkaklar uchun ham, qizlar uchun ham 18 yosh qilib belgilandi. Respublika Oliy Soveti Prezidiumi ayni vaqtida QQASSR Oliy Soveti Prezidiumiga, oblast va okrug ijroiya komitetlariga favqulodda holatlarda ayrim iltimoslarga ko'ra, nikoh yoshini ayollar uchun bir yilga kamaytirish huquqini berdi. Ayollarga nisbatan nikoh yoshi ko'rsatilishining asosiy sababi ularga ma'lumot olish uchun imkoniyat yaratib berish, yosh qizlarni, ular turmushga chiqqach, eriga qaram bo'lib qolishidan xoli etish edi. Nikoh yoshining umum fuqarolik muomalaga layoqatli yoshga (18) [4] mos kelishi ham muhim ahamiyatga ega.

1920-1930 yillarda Sovet hukumati tomonidan oila-nikoh masalalarida qabul qilingan qonunlar asosida quyidagi o'zgarishlar bo'ldi: sovet davlati faqat davlat organlarida rasmiylashtirilgan nikohni tan olgan; diniy nikoh (shar'iy nikoh) qonuniy hisoblanmagan; nikohni davlat ro'yxatidan o'tkazish FHDYo organlari tomonidan amalga oshirilgan; sovet qonunchiligidagi nikohga kirishish uchun minimal yosh erkaklar va ayollar uchun belgilangan; nikoh uchun tomonlarning roziligi va yaqin qarindoshlik bo'lmasligi talab qilingan; ajralish sud yoki FHDYo organlari orqali amalga oshirilgan. Agar oila voyaga yetmagan farzandlarga ega

bo'lsa yoki mulkiy nizolar mavjud bo'lsa, sud ishi majburiy bo'lgan.

1941-1945-yillardagi Ikkinci jahon urushi davrida bir qancha me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu hujjat ichida SSSR Oliy Sovet-ti Prezidiumining 1944-yil 8-iyuldagagi "Homilador ayollarga hamda ko'p bolali va bolali yolg'iz onalarga davlat nafaqasini kuchaytirish to'g'risida", "Qahramon ona" faxriy unvonini belgilash va "Onalik shuhrati" ordeni hamda "Onalik medali"ni ta'sis etish to'g'risida chi-qargan farmonlari diqqatga sazovordir [5].

1944-yil 8-iyulda qabul qilingan farmon mamlakatning oilaviy qonunchilagini birdaniga bir asr orqaga tashladi [6]. Ushbu farmonga ko'ra, nikohdan tashqari tug'ilgan bolalar uchun otalikni belgilash taqiqlanib, ularning huquqiy maqomi sezilarli darajada cheklab qo'yildi.

1944-yil 8-iyul farmoniga muvofiq qabul qilingan ayrim asosiy qoidalar quyidagilar edi: 1.Ko'p bolali oilalarga davlat tomonidan moddiy yordam ajratildi. Erga tegishli yoki beva ayollar, agar ular ikki farzandga ega bo'lib, uchinchi yoki undan keyingi farzandini dunyoga keltirsa, davlat nafaqasiga ega bo'lish huquqiga ega edi; 2.Nikohsiz tug'ilgan bolalarni tarbiyalayotgan yolg'iz onalarga alohida yordam berildi: 1 bola uchun – oyiga 100 rubl, 2 bola uchun – oyiga 150 rubl, 3 va undan ortiq bola uchun – oyiga 200 rubl; 3.Yangi tug'ilgan chaqaloqlar uchun ijtimoiy sug'urta va kooperativ jamg'armalar hisobidan ajratiladigan bir martalik nafaqa 45 rubldan 120 rublgacha oshirildi; 4.Homiladorlik va tug'ruq ta'tili uzaytirildi. Ayollar uchun ta'til muddati 63 kundan 77 kunga oshirildi, shuningdek, 35 kunlik homiladorlik ta'tili va 42 kunlik tug'ruqdan keyingi ta'til belgilandi. Ushbu davr mobaynida ayollarga davlat hisobidan yordam puli to'lanishi ko'zda tutilgan edi.

Ko'p farzandli onalarni rag'batlantirish maqsadida maxsus mukofot tizimi joriy etildi: "Onalik shuhrati" ordeni: I daraja – 9 nafar bola tarbiyalagan onalarga, II daraja – 8 nafar bola tarbiyalagan onalarga, III daraja – 7 nafar bola tarbiyalagan onalarga. "Onalik medali": I daraja – 6 nafar bola tarbiyalagan onalarga, II daraja – 5 nafar bola tarbiyalagan onalarga. "Qahramon ona" unvoni 10 va undan ortiq

bola tug‘ib, tarbiyalagan ayollarga berildi. Bu choralar aholining ko‘payishini rag‘batlantirish maqsadida qabul qilingan bo‘lsa-da, oilaviy huquq sohasidagi boshqa cheklovlar (masalan, nikohsiz tug‘ilgan bolalarga otalikni belgilash taqiqlanishi) jamiyatda jiddiy muammolar keltirib chiqardi.

Bu farmon quyidagi maxsus tadbirlami belgiladi:

a) davlat tomonidan onalarga va bolalarga beriladigan yordam puli ko‘paytirildi. Ko‘p bolali onalarga bir yo‘la to‘lanadigan yordam puli ikki bolasi bo‘lib va undan so‘ng har bola tug‘ilganda, har oylik yordam puli esa uch bolasi bo‘lib, to‘rtinchi bola tug‘ilganida va har bir navbatdagi bola tug‘ilganda to‘lanadigan bo‘ldi; b) bolali yolg‘iz onalarga yordam puli belgilandi; v) onalik va bolalikni muhofaza qilishga qaratilgan keng, aniq chora-tadbirlar ishlab chiqildi;

g) homilador ayollarga va bolali yolg‘iz onalarga mehnat imti- yozlari belgilandi;

d) tarixda birinchi marta ko‘p bola tug‘ib, tarbiyalagan onalarga davlat mukofotlari “Onalik medali”, “Onalik shuhrati” ordeni va “Qahramon ona” faxriy unvoni joriy qilindi.

Farmon nikoh va oila qonunchiligiga muhim o‘zgartirishlar kiritdi:

1) faqat fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ro‘yxatga olingan nikohgina qonuniy kuchga ega, degan qoida tasdiq- landi: shu tufayli amaliy nikoh munosabatlari kuchga ega, degan huquqiy norma bekor qilindi; shunday nikohda turgan shaxslarga amalda birga nikohda turgan vaqtini ko'rsatib, nikohni qayd ettirib olish huquqi berildi;

2) nikohdan ajratish faqat sud orqali hal etilishi belgilandi; xalq sudiga er- xotinni yarashtirish majburiyati yuklatildi; nikohdan ajra- tishni uzil-kesil hal etish yuqori turuvchi sudga tegishli ekanligi tartibi belgilandi;

3) ish xalq sudida ko‘rilguniga qadar nikohdan ajralish to‘g‘risi- da xabar matbuotda albatta e’lon qilinishi lozimligi belgilandi (keyinchalik, SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1965-yil 10-dekabr Farmoni bilan bu tartib bekor qilindi) va ajralishni rasmiylashtirishda undiriladigan (50 so‘mdan 200 so‘mgacha bo‘lgan)

pul miqdori belgilandi;

4) qayd etilgan nikohdan tashqari tug'ilgan bolalarga otalikni belgilash to‘g‘risidagi qoida ham bekor qilindi, biroq bu qoida 1944- yil 8-iyul Farmoni qabul qilinguniga qadar tug'ilgan bolalarga nisbatan tatbiq etilmaydi, chunki qonun orqaga qaytish kuchiga ega emas.

Umuman bu farmondan ko‘zda tutilgan maqsad, aslida oilani mustahkamlash, ona va bolalar manfaatlarini teng himoya qilish, ko‘p bolali onalami rag‘batlantirish, axolining o‘sishini ta’minlashdan iborat edi. Shunday qilib, 1944-yil farmoni ajrashishlar sonini kamaytirgan va oilaviy institutni mustahkamlashga qaratilgan bo‘lsa-da, nikohsiz tug'ilgan bolalarning huquqlarini cheklagan hamda ota-onalarning oilaviy majburiyatlarini og‘irlashtirgan.

Faqatgina 1945-yil 14-martdagi farmon [7] orqali otaning nikohsiz tug'ilgan farzandini tan olishi imkoniyati qayta tiklandi, ammo bu faqat onasi bilan rasmiy nikohga kirish sharti bilan amalga oshirilishi mumkin edi. Farmonning yana bir muhim qoidasi faqat rasmiy ro‘yxatga olingan nikohga huquqiy ahamiyat berilishi edi (19-band). 1926–1944-yillar oralig‘ida nikohni ro‘yxatdan o‘tkazmagan barcha shaxslarga o‘z munosabatlarini rasmiylashtirish va faktik nikohga kirgan sanasini hamda umumiy farzandlarini ko‘rsatish majburiyati yuklatildi. Agar ular bunday qilmasa, ularning nikohi huquqiy kuchga ega emas deb hisoblanardi. Bu o‘zgarishlar oilaviy qonunchilikda keskin burilish yasab, avvalgi liberallahsgan yondashuvdan voz kechish va davlat nazoratini kuchaytirishning aniq belgisi bo‘ldi.

Ushbu qaror 1944-yil 8-iyul farmonining 19 va 20-moddalarini yanada rivojlantirib, nikohsiz tug'ilgan bolalarning huquqiy maqomi bo‘yicha ba’zi yengilliklarni nazarda tutadi. Asosiy qoidalar: 1.Aliment da’volari bo‘yicha sud tartibi: Agar bola 1944-yil 8-iyul farmonidan oldin tug'ilgan bo‘lsa va otasi fuqarolik holati dalolatnomalarida qayd etilgan bo‘lsa, onasi bola uchun aliment undirish talabini sudga berishi mumkin. 2.Nikohsiz tug'ilgan bolalarning meros huquqi: 1944-yil 8-iyul farmonidan oldin nikohsiz tug'ilgan bolalar, agar otasi

fuqarolik holati dalolatnomalarida qayd etilgan bo'lsa, otasi vafot etgan taqdirda, qonuniy nikohdan tug'ilgan bolalar bilan teng huquqlarga ega bo'lib, meros olish va davlat pensiyalari, shu jumladan harbiy xizmatchilar oilalariga ajratiladigan davlat nafaqalariga da'vo qilish huquqiga ega bo'ladilar. 3. Keyinchalik nikohga kirish orqali bolalarning huquqiy maqomini tiklash: Agar ona ilgari birga farzand ko'rgan erkak bilan keyinchalik rasmiy nikohdan o'tsa va u o'z otalik maqomini tan olsa, bola huquqiy jihatdan nikohli farzandlar bilan tenglashtiriladi. Bola otasining ismini otalik sifatida oladi va ota-onaning o'zaro kelishuvi bilan otasining familiyasini olishi mumkin.

Bu qoidalar 1944-yil farmoni tufayli vujudga kelgan ba'ziadolatsizliklarni yumshatish va nikohsiz tug'ilgan bolalar uchun minimal ijtimoiy kafolatlarni ta'minlashga qaratilgan edi. Biroq, nikohsiz tug'ilgan bolalarning otalikni belgilash imkoniyati hanuz keskin cheklanganligicha qolgan. Umuman bu farmonidan ko'zda tutilgan maqsad, aslida oilani mustahkamlash, ona va bolalar manfaatlarini teng himoya qilish, ko'p bolali onalami rag'batlantirish, aholining o'sishini ta'minlashdan iborat edi.

Urush tugaganidan so'ng, hukumat ushbu masalaga qaytadan murojaat qildi: 1947-yil 25-noyabrda SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining "Ko'p bolali va yolg'iz onalarga davlat tomonidan beriladigan nafaqalar miqdori to'g'risida" yangi farmoni qabul qilindi [8] Ushbu farmonga ko'ra, hukumat rublning xarid qobiliyati oshganligini rasmiy sabab qilib ko'rsatib, beriladigan nafaqalar miqdorini deyarli yarmiga qisqartirdi.

1949-yil 19-mayda esa SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining "Ko'p bolali va yolg'iz onalarga davlat yordamini yaxshilash va ayollarning mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash to'g'risida" [9] farmoni chiqdi. U 1944-yil 8-iyul va 1947-yil 25-noyabr farmonlarini to'ldirgan holda, quyidagi o'zgarishlarni joriy etdi: Agar ona vafot etsa yoki kasal bo'lsa, farzand boshqa shaxslarda tarbiyalansa ham davlat nafaqasini olish huquqi saqlanib qolishi; Yolg'iz onalar uchun bolalarni bolalar bog'chalari va bolalar uylarida saqlash xarajatlari 50% ga kamaytirilishi,

agar onaning ish haqi oyiga 60 rubl dan oshmasa.

Xulosa. Umuman olganda, 1930-1940-yillardagi oila-nikoh qonunchiligi O'zbekistonda sovet ijtimoiy siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u jamiyatning huquqiy va ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ushbu davrda olib borilgan islohotlar kelgusidagi huquqiy va ijtimoiy jarayonlar uchun zamin yaratgan bo'lsa-da, ularning samaradorligi va uzoq muddatli natijalari murakkab va bahsli bo'lib qolmoqda. Urush yillarida qonunchilik oilani mustahkamlash va bolalikni himoya qilishga qaratilgan bo'lsa-da, asosan ma'muriy choralar va sanksiyalar orqali amalga oshirilgan. Urushdan keyin Sovet davlati oilani mustahkamlash bo'yicha tizimli siyosat yuritdi. Bu siyosat quyidagi yo'naliishlarda olib borildi: Ayollar va bolalar uchun huquqiy va iqtisodiy kafolatlarni kengaytirish; Onalik va bolalik masalalariga jamiyat e'tiborini oshirish; Ayollarga oilaviy majburiyatlarini mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish uchun sharoit yaratish; Aholining moddiy farovonligini oshirish uchun iqtisodiy chora-tadbirlar ko'rish (bolalar bog'chalari, maktablar va uy-joy qurilishi).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. СЗ СССР 1936 № 34 Ст 309.
2. Семенова О.П., Зарождение и развитие государственного регулирования семейных отношений в эволюции Российского права с IX по XX века (историко-правовой аспект). Автореферат дисс. на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Спб., 2007. -С. 18.
3. СИЖ УзССР, 1938. 20-сон, 43-модда.
4. Бончко В.И. Очерки советского семейного прав. Переработ. и доп. В.А.Рясенцевым. Киев. Госполитиздат УзССР, 1952. – С. 118-119; Свердлов Г.М. Советское семейное право. – М.: Госюриздан, 1958. – С. 112.
5. Ведомости Верховного Совета СССР. 1944 г.№ 37.
6. См Указ Президиума Верховного Совета СССР от 8 июля 1944 г «Об увеличении государственной помощи беременным женщинам, многодетным

и одиноким матерям, усилении охраны материнства и детства, об установлении почетного звания «Мать героиня» и учреждении ордена «Материнская слава» и медали «Медаль материнства»// BBC СССР 1944 №37.

7. См Указ Президиума Верховного Совета СССР от 14 марта 1945 г «О порядке применения Указа Президиума Верховного Совета СССР от 8 июля 1944 г в отношении детей, родители которых не состоят между собой в зарегистрированном браке»// BBC СССР 1945 №15

8. См.: Указ Президиума Верховного Совета СССР от 25.11.1947 г. «О размере государственного пособия многодетным и одиноким матерям» // Ведомости Верховного Совета СССР. 1947. №14.

9. См.: Об улучшении дела государственной помощи многодетным и одиноким матерям и улучшении условий труда и быта женщин // Ведомости Верховного Совета СССР. 1949. № 26.